



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
AHOLISINING UMUMIY
DAROMADLARI VA MINIMAL
ISTE'MOL XARAJATLARI



2023- YILNING
YANVAR-DEKABR
OYLARI BO'YICHA
DASTLABKI
MA'LUMOTLAR


Aholining umumiy daromadlari

(2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

Aholi umumiy daromadlarini hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanma asosida amalga oshiriladi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari **728,8** trln. so'mni tashkil etdi.



Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlarini indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **104,6 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar

(2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)




Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Statistika agentligi hisobotlari ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi ma'lumotlaridan, bundan tashqari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Ma'lumot uchun: Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Davlat statistika qo'mitasining "Aholining umumiy daromadlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 13-iyuldagi 25-son qarori asos bo'ladi. <https://lib.stat.uz>

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmida Toshkent shahrida (**44 427,9** ming so'm) hamda Navoiy (**31 445,6** ming so'm), Buxoro (**23 480,3** ming so'm) va Toshkent (**20 730,2** ming so'm) va Xorazm (**20 076,6** ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha, ming so'm)



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining eng quyi ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (14 570,7 ming so'm), Namangan viloyati (15 070,6 ming so'm) va Farg'ona (15 716,5 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aholining real umumiy daromadlari – aholining nominal umumiy daromadlarini tegishli davr uchun iste'mol narxlari indeksiga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Real o'sish sur'atlari

2023-yil **102,4 %**

2022-yil **107,3 %**

2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi **102,4 %** ni tashkil etdi. Xuddi shu ko'rsatkich 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga **107,3 %** ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari, 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga, % da



Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahri (**7,6 %**) Navoiy (**5,7 %**), Sirdaryo (**4,4 %**), Andijon (**4,4 %**) va Jizzax (**4,3 %**) viloyatlarida kuzatildi.


Shu bilan birga Xorazm (**-6,4 %**), Surxondaryo (**-0,8 %**), Samarqand (**-0,5 %**), Buxoro (**-0,4 %**), Namangan (**-0,3 %**) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari pasayishi qayd etildi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibi

(2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha)

Birlamchi daromadlar

73,3 %



26,7 %

Transfertlardan olingan daromadlar

29,7%

Yollanma ishchilar daromadlari

34,3%

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

6,5%

Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar

2,8%

Mol-mulkdan olingan daromadlar


Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida **29,7 %** ulushga ega bo'lgan yollanma ishchilarning daromadlari va **34,3 %** ulushga ega mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hamda **26,7 %** ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy (**79,5 %**), Toshkent (**75,2 %**), Jizzax (**75,0 %**), Sirdaryo (**67,3 %**) va Buxoro (**67,2 %**) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: bu yerda va keyingi o'rinlarda shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar bo'yicha ma'lumotlar qayta hisoblashlarni "MHT – 2008" xalqaro standartida o'z uyida yashash bo'yicha xizmatlar (shartli uy-joy rentasi)ni baholashning yangi metodologiyasi joriy etilishini inobatga olgan holda keltirilgan.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi

(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar




Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilar va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi




2023-yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi **64,0 %** ni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **119,8 %** ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **12,1 %** ga o'sishini ta'minladi.

Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati




Aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi



Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati **119,9 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,7 %** ga o'sishini ta'minladi.

Hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi

(2023-yilning yanvar-dekabr holatiga, % da)




Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Toshkent shahrida (**124,3 %**), Andijon (**121,6 %**) va Jizzax (**120,9 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati



Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati **119,7 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **6,5 %** ga o'sishini ta'minladi.


Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar **34,3 %** ni tashkil qildi.


Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar o'sish sur'ati va ulushi

(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, % da)



Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax (**51,4 %**), Buxoro (**44,0 %**), Qashqadaryo (**42,8 %**), Surxondaryo (**42,3 %**) va Toshkent (**42,2 %**) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich o'rtacha respublika darajasidan past bo'lgan.


Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar 1 % ga o'sganda aholining umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri



2023-yil yanvar-dekabr oylarida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining **0,34 %** ga o'sishiga olib keldi.

Jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarda hududlarning ulushi

(2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha, % da)




Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Samarqand (**11,0 %**), Toshkent (**10,6 %**), Andijon (**9,8 %**) va Qashqadaryo (**9,7 %**) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (**2,3 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**3,7 %**), Toshkent shahri (**4,8 %**) va Navoiy viloyati (**5,0 %**) hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo'jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.

Mol-mulkdan olingan daromadlarning aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi




Mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, mol-mulkdan olingan daromadlar **20,4** trln. so'mni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi **2,8 %** ni tashkil etdi. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining **1,0 %** ga o'sishini ta'minladi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, **72,1 %** ni tashkil etdi. Toshkent (**5,4 %**) viloyati keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hudud hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi (2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha)



Mol-mulkdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)



2023-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati **143,7 %** ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Navoiy **183,6 %** va Toshkent **153,2 %** viloyatlarida qayd etildi.

2024- yil uchun minimal iste'mol xarajatlari qiymati

Minimal iste'mol xarajatlari — uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari va tarkibini o'rganish asosida ularning sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va noziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymati.

Minimal iste'mol xarajatlari qiymati

621 ming so'm



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 27- avgustdagi "**Minimal iste'mol xarajatlari qiymati**"ni hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida" 544-son qaroriga asosan minimal iste'mol xarajatlari qiymati hisoblanadi.

2023- yil (yillik) inflyatsiya darajasidan kelib chiqib, 2024- yil uchun hisoblangan minimal iste'mol xarajatlari qiymati bir oyda kishi boshiga **621 ming** so'mni tashkil etdi.

Jahon tajribasida minimal iste'mol xarajatlari ko'rsatkichidan kambag'allik chegarasi sifatida foydalanish keng tarqalgan bo'lib, mazkur ko'rsatkichdan:

- ✓ davlatning moddiy va boshqa ijtimoiy ko'maklariga muhtoj aholining maqsadli (target) guruhini aniqlash;
- ✓ mamlakat kambag'allik chegarasini belgilashda foydalanish va bunda target guruhdagi aholining real iste'mol xususiyatlari va talablarini inobatga olish;
- ✓ kambag'allikka qarshi kurashish strategiyasi va dasturlarida belgilangan vazifa va chora-tadbirlarning natijadorligi hamda manzilliligini oshirish, shuningdek, ularning doimiy monitoringini yuritish;
- ✓ pensiyalar va nafaqalarning eng kam miqdorini belgilash, shuningdek, kambag'al oilalarga beriladigan boshqa turdagi moddiy ko'maklarni ko'rsatishda mezon sifatida foydalaniladi.

Transfertlar – uy xo'jaliklariga boshqa uy xo'jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo'lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.

Aholi umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi




Transfertlardan olingan daromadlarni o'sish sur'ati



Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **103,0 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi **26,7 %** ni tashkil etdi.

Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi





2023-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning **39,8 %** ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, **60,2 %** ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy transfertlar tarkibi



Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulush – **74,3 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar **23,9 %** ni, stipendiyalar **1,8 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati **119,4 %** ni, nafaqalarning o'sish sur'ati **105,1 %** ni va stipendiyalarning o'sish sur'ati **117,8 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, jami **18,5 trln. so'm** miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan **33,7 %** i budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va **66,3 %** i respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Boshqa joriy transfertlar


(2023-yilning yanvar-dekabr holatiga)

Boshqa joriy transfertlar hajmi chet eldan yuborilgan pul o'tkazmalari tarkibidan jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish (biznes) faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog'liq o'tkazmalarini (Markaziy bank va uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi ma'lumotlari asosida) chiqarib tashlangan holda keltirilgan.

2023-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati **96,1 %** ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **-3,2 %** punktga pasaydi.

Hududlar bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi

(2023-yilning yanvar-dekabr holatiga)




Aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar

(2023-yilning yanvar-dekabr holatiga)

2023-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi **57,0 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi



Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hududiy aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha, eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (**67,3 %**) kuzatildi. Eng kam ulush esa Toshkent shahrida (**46,1 %**), Navoiy viloyatida (**50,4 %**) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**51,1 %**) qayd etildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Aholi birlamchi daromadlari ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarishdan olingan daromadlarga mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste‘mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar kiradi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromad yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo‘lgan aholining daromadidan tarkib topadi.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad – mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo‘jaligi a‘zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar.

Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo‘ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo‘jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.